



## INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM

Yuldashev Asadbek Alimardonovich

Nizomiy nomidagi TDPU Harbiy ta'lif fakulteti

I -bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning inson qadrini ulug'lash hamda ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan ishlari keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, Insonga e'tibor va uning qadr – qimmati, ta'lif, bilim olish huquqi, ta'lif shakllari, aholi bandligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis parlamenti va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida, 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif" yili deb nomlashni taklif qildi. Ortda qolgan 2022-yilni kutib olar ekanmiz, yakunlangan yilda yurtimizda barcha sohalarda erishilgan yutuqlarga nazar tashlaymiz. Chunki o'tgan yilda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadi har bir jamiyatda oliy qadriyat hisoblanmish inson manfaatlari to'la ro'yobga chiqarishga qaratildi. Har bir inson yaxshi yashashi, hayoti go'zal mazmun kasb etishi oliy qadriyat. Ular ertaga emas bugun yaxshi yashashni istaydi. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridanoq xalqimizga tinch va osuda hayat kechirish uchun yaxshi sharoit yaratib berishni o'z oldiga maqsad va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ana shu ezgu-maqsadlar ro'yobiga qaratildi. Prezidentimiz qayerga bormasin, aholi bilan uchrashib, ularning xohish-istiklari, qiziqishlari, duch kelayotgan muammolariga alohida e'tibor berdi. Mahallama-mahalla yurib, odamlarning dard-u tashvishini eshitdi va muammolarni shu joyning o'zida bartaraf etish choralarini ko'rди. Shu orqali odamlar qalbiga yo'l topildi. Natijada odamlarning ruhiyatida katta o'zgarishlar yuz berdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda islohotlarning bosh mezoni hamda taraqqiyotning asl mohiyati bir maqsad – inson qadri uchun xizmat qilmoqda. Zero, mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Inson qadri – ulug'. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayatidan rozi va mamnun bo'lib yashashi kerak". Mamlakatimizda insonlar o'z hayatidan rozi bo'lib yashashlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar ko'rilmoxda. Bir so'z bilan aytganda, "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" va "Xalq davlat idoralariiga emas balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak" tamoyillari ro'yobga chiqdi. Yilga bunday nom berish ham bejiz emas. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon. Shu yurda



yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘ligi joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga davlatimiz tomonidan harakat qilinmoqda

Mamlakatimiz rahbari, 2023-yilda ham yoshlarni qo’llab-quvvatlash, sifatli ta’limni yanada mustahkamlash bo‘yicha yurtimizda olib borilayotgan islohotlar izchil davom etishini ta’kidlab o’tdilar. Qayd etish lozimki, ta’lim tizimini isloh etish, ta’lim sifatini oshirish bilan birga, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatda o’qituvchi va murabbiylarning tutgan mavqeini oshirish hamda ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash borasidagi ishlar yangi bosqichga olib chiqildi. Xususan, bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish 9 foizdan 38 foizga yetdi, oliy ta’lim muassasalari soni 2.5 barobarga oshib 198 taga yetdi hamda qabul jarayonlaridagi turli adolatsizliklarga barham berildi. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan professor-o’qituvchi va talabalar almashinuvi loyihaviy hamkorlik ishlari kengaytirildi.

O‘zbekistonda “Ta’lim to‘g’risidagi Qonunning yangi tahriri qabul qilinishi, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mutanosibligini ta’minalash mexanizmlaridan samarali foydalanishga e’tiborni kuchayib borayotganligi, mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi Prezident maktablari, Ijod maktablari, yangi oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo’shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo‘lajak mutaxassislarning o‘z yo‘nalishlarida tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi oliy ta’limni rivojlantirishning strategik vazifalari qatorida keltirilgan. V.V.Krayevskiy ilmiy tadqiqotlarni “tizimli, maqsadga muvofiq” hodisa sifatida ta’kidlaydi. Ijodning maxsus shakli bo‘lgan ilmiy tadqiqot jarayoni o‘ziga xos metodologik xarakterga ega. U subektning borliq hodisalarini qay darajada bilishida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot jarayonida subekt obektga faol, izchil ta’sir ko‘rsatadi, yangilikni yaratadi yoki kashf etadi.

Murojaatnomada 2023-yildan milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytirilishi, maktab ta’limi va tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilishi, o‘quvchilarga ona tili va chet tillarni o‘rgatish, umumiy o‘rta ta’limdan kompyuter savodxonligiga erishish, farzandlarimizni kasb-hunarga qiziqtirish, ularda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishslash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi, iqtidorli yoshlarni qo’llab-quvvatlash, galdagi muhim vazifalar sifatida tilga olingan. Shuningdek, davlatimiz rahbari 2023-yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishga kirishilishini, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriylar tashkil qilinishini ham ta’kidlab o’tdi.

Murojaatnomada ta’kidlanganidek, kelgusi yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta’lim kreditlariga resurslar ikki barobar ko‘paytirilib, 1,7 trillion so‘m

ajratiladi. Bunday imtiyozlar ta’lim sifati, shakli va mazmunini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish, ularda yaratuvchilik sifatlarini tarkib toptirish, ilm-fan rivojiga hissa qo’shadigan iqtidorlarni tarbiyalash kabi mas’uliyatli vazifalarni bajarishda faol bo‘lishimiz “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”dagi asosiy vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin: birinchisi, bevosita dars jarayonida: seminar, amaliy mashg‘ulot darslarida muammoli darslarni tashkil etish, muammoli vazifalarni qo‘yib, ularni yechishga undash, talabalarning mutaxassisligi yoki biror fan doirasida o‘quv loyiha loyihlarini yaratishga erishish; – ikkinchisi, darsning mantiqiy davomi bo‘lib, darsdan tashqari vaqtida o‘quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish: mustaqil ish, referat, kurs ishi, ilmiy, o‘quv-tadqiqot ishlarini bajarish, olimpiada va ko‘rgazmalarda o‘z chiqishlari va konferensiyalarda ilmiy maqolalari bilan ishtirot etish kerak. Qolaversa konferensiylar talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy ishlar - (inglizchada academic conference) bu ilmiy faoliyatni tashkil etish shakli bo‘lib, unda olimlar, tadqiqotchilar, talabalar o‘z ishlarini taqdim etadilar va muhokama qiladilar. Konferensiylar va boshqa ilmiy forumlarda qatnashish tadqiqotchi, talabalarga tadqiqotchiga ilmiy jamoatchilikka o‘zini ko‘rsatishga, ilmiy muhokamada, bahslarda tajriba orttirishga, nutqini charxlashga, ilmiy seminar va dissertatsiya himoyalari jarayonida nutq so‘zlash va savollarga javob berishga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi. Shuningdek o‘z ilmiy izlanishlarini ommalashtirish imkonini beradi. Yodda tutish kerakki, konferensiylar va boshqa ilmiy forumlar, bu ma’lum bir fan sohasidagi masalalarni muhokama qilish, muammoni hal qilish yo‘llarini birgalikda izlashdan iborat bo‘lgan tadbirdir.

Bugungi kunda innovatsion ta’lim shakllaridan, texnologiyalardan foydalanib, o‘quvchi shaxsini har jihatdan kamol toptirishga, mustaqil fikrlovchi, o‘ziga xos qarashlarini bayon qila oladigan, kreativ qobiliyatga ega yoshlarni tarbiyalash ta’lim-tarbiyaning dolzarb vazifalariga kiradi. Ta’limda keng qo‘llanilayotgan “binar darslar”, “sayohat”, “uchrashuv”, “sayyor darslar” vositasida o‘quvchi yoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirishga, bilimi va qiziqishlarini oshirishga, ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarining ilg‘or ish tajribalari yanada ommalashtirilishi lozim. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bo‘g‘inlarida ishlayotgan tajribali o‘qituvchi-ustozlar ishtirokidagi seminarlar, seminar treninglar, o‘quv treninglari, metodik konferensiyalarni maktablarda tashkil etish tajribasi keng yoyilsa, muktab darsliklari zamon talablari asosida birgalikda tayyorlansa, ta’lim bosqichlari aro uzviylikda ishlash mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022-yil.
2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T. : O‘zbekiston, 2001.
3. Internet saytlari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)